

---

## Farg'onada ilk bor to'xtab turgan yurakda aorta klapanini protezlash jarrohlik amaliyoti o'tkazildi

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filialida ilk bor to'xtab turgan yurakda aorta klapanini protezlash jarrohlik amaliyoti o'tkazildi.

Yurak klapanlari yaxshi ishlamasligi natijasida bemorning nafas qisishi, charchoq, ko'krak qafasidagi og'riqlar va yurak yetishmovchiligi bezovta qilgan. Poytaxtdan kelgan malakali kardioxirurglar va farg'onalik shifokorlar ushbu asoratlarni bartaraf etish, bemorni sog'lom hayotga qaytarish maqsadida ilk bor to'xtab turgan yurakda aorta klapanini protezlash jarrohlik amaliyotini o'tkazdi.

2022-09-08 10:31:17